

## Autorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha

SHARTNOMA № 4

Toshkent sh.

«21» 09 . 2022 yil

ПИСКЕНТ ТТБ nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi raxbari М С Кодирова (keyingi o'rinda autorsing bajaruvchi deb ataladi) ikkinchi tomondan « SHAXZOD ZOVIDOV BIZNES « nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi « SH. ZOVIDOV (keyingi urinda buyurtmachi) deb ataladi, ushbu Shartnomani quyidagicha tuzdilar.

### I. Shartnoma predmeti

1.1. Autorser Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha mazkur Shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatib o'tilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Autorser mazkur shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab, u tugaguniga qadar har kuni Buyurtmachini mijozlarni shifoxona oshxonasida bemorlar uchun issik -ovqat bilan ta'minlash va tayorlab berish hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya-gigiena normalari va qoidalariga rioya etgan holda, Buyurtmachi bilan kelishilgan buyurtmalarni bajarish jadvaliga muvofiq ta'minlash majburiyatini (keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi) o'z zimmasiga oladi.

1.3. Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Autorser tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-faktura imzolanib Buyurtmachi Autorserning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisob-raqamiga pul mablag'lari o'tkazgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

### II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

- 2.1. Autorser quyidagi huquqlarga ega:
- 2.1.1. Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish;
  - 2.1.2. Ijaraga olingan bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida texnik jihatdan jihozlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;
  - 2.1.3. Xizmatlar tannarxining o'zgarishi munosabati bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish;
  - 2.1.4. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilishini talab qilish;
  - 2.1.5. Ko'rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish;
  - 2.1.6. Buyurtmachidan shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish;
  - 2.1.7. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.
- 2.2. Autorser quyidagilarga majbur:
- 2.2.1. Ijaraga olingan bino va inshootlar, jihozlardan maqsadli hamda oqilona foydalanishi, saqlashi, nosoz holga kelganda ularni o'z hisobidan ta'mirlashi, shuningdek, kommunal xarajatlarini qoplashi;
  - 2.2.2. Autorsing xizmatini ko'rsatishda texnika, yong'in, mehnat muhofazasi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga qat'iy rioya etishi;
  - 2.2.3. Tovar (ishlar, xizmatlar)ning sifatli ishlab chiqarilishini va buyurtmachiga yetkazilishini ta'minlashi;
  - 2.2.4. Maxfiylik tartibiga qat'iy rioya qilishi;
  - 2.2.5. Shartnomani bekor qilish haqida buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa buyurtmachining tegishli xizmatlarini uzluksiz tashkil etishni ta'minlashi;
  - 2.2.6. Xizmatlarni sifatli, mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatishi;
  - 2.2.7. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Autorser mazkur shartnoma shartlariga amal qilmasdan, xizmatlar sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul to'g'rilashi;
  - 2.2.8. Xizmatlarning sifatsizligi, xizmatlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanishga beriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xonalari holati, shuningdek, tegishli inventarlarning sanitariya qoidalariga javob bermasligi aniqlanganda, Autorser zudlik bilan Buyurtmachining aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy talabini bajarishi;
  - 2.2.9. Malakali, tajribali, qo'yilgan vazifani (xizmatni, ishni) amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan, shuningdek, belgilangan tartibda va muddatda tibbiy tekshiruvdan (ko'rikdan) o'tgan xodimlarga (talab etilgan hollarda) xizmatlarni bajarish jarayoniga ruxsat etishi;
  - 2.2.10. Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalariga, shuningdek, ichki tartibga rioya qilish majburiyatini yuklashi;
  - 2.2.11. Xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni shaxsan bajarishi, mazkur Shartnoma shartlarini bajarishni uchinchi shaxsga topshirmasligi;

- 2.2.12. Mazkur shartnoma shartlarini bajarish doirasida Buyurtmachi tomonidan vaqtincha foydalanishga topshirilgan uskunalar, jihozlar, idishlar, asboblari, mebellar, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni soz holda saqlashi, ta'mirlashi, shuningdek, binolarni ta'mirlashi;
- 2.2.13. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda, Buyurtmachidan binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni qabul qilib olishi;
- 2.2.14. Mazkur shartnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirishi, ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachiga xizmatlarni uzluksiz ko'rsatilishini ta'minlashi;
- 2.2.15. Mazkur shartnomaga asosan Xizmatlarni ko'rsatish ishlariga jalb etilgan xodimlarni o'qitishni (malakasini oshirishni) amalga oshirishi (talab etilgan hollarda);
- 2.2.16. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.
- 2.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:
- 2.3.1. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatli ishlab chiqarilishi (bajarilishi, ko'rsatilishi)ni talab qilish;
- 2.3.2. Outsorserning faoliyatiga aralashmagan holda, shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish;
- 2.3.3. Shartnomani bekor qilish to'g'risida 10 kun oldin Outsorserni yozma ravishda ogohlantirish, bunda ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lash;
- 2.3.4. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.
- 2.4. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:
- 2.4.1. Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lashi;
- 2.4.2. Shartnomada tuzilgan summaning oldindan 30 % tulov, yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun kolgan 70 % tulovi amaldagi narxlar bo'yicha tulab berish majburiyatini oladi.
- 2.4.3. Outsorserga mazkur Shartnoma shartlarini bajarish doirasida binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqa moddiy vositalarni vaqtincha foydalanishga berishi;
- 2.4.4. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

### III. Xizmatlar narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi

- 3.1. Mazkur shartnomaning jami umumiy summasi 156465000 (156 m 465 h 000) so'm 00 tiyini QQS siz tashkil etadi.
- 3.2. Outsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha bir oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.
- 3.3. Outsorsing bo'yicha ovqatlanishni tashkil etish xizmati narxi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan bir bemorga bir kunlik ovqatlanishning normasidan kelib chiqqan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari tomonidan belgilanadigan oziq-ovqat mahsulotlarining eng yuqori narxlardan oshmaydigan narxlariga outsorserning xarajatlarini qoplash maqsadida 20 foizgacha ustama haqni hisobga olgan holda belgilanadi.
- 3.4. Ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik buyurtmaga muvofiq Outsorser bilan birgalikda har o'n kunda, to'lanishi lozim bo'lgan summasi ko'rsatilgan, Outsorser va Buyurtmachi tomonidan imzolanadigan bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi tuziladi va hisob-faktura rasmiylashtiradi.
- 3.5. Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab, 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.
- 3.6. Mazkur Shartnomaning ilovasida ko'rsatilgan, shartnomaning prognoz summasini hisoblash uchun xizmatlarning narxlari tomonlardan birining tashabbusi bilan qayta ko'rib chiqiladi.

### IV. Tomonlarning majburiyatlari

- 4.1. Outsorser shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan hollarda, Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar oylik narxining 50 foizidan oshmasligi kerak.
- 4.2. Penya (jarima) to'lash Tomonlarning zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf qilishdan ozod etmaydi.
- 4.3. Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmasligi yoki tegishli darajada bajarilmasligi uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablarida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan javobgar bo'ladi.

4.4. Buyurtmachiga har chorakda bir marotaba ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, ijaraga berilgan bino va inshootlarning holatini monitoring o'tkazishga (autosorseming moliyaviy faoliyatiga aralashmagan holda) sharoitlar yaratish.

4.5. Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

#### **V. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi**

5.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etib bo'lmaydigan holatlarda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf qilish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sudga ko'rib chiqish uchun beriladi.

#### **V.I. Korrupsiyaga qarshi shart**

6.1. Tomonlar:

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti- harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

6.2. Tomonda ushbu Shartnomaning 6.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa - amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

#### **VII. Fors-major holatlar**

6.1. Tomonlar majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holatlar yengib bo'lmas kuch, ya'ni tabiiy ofatlar, tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda holatlar va alohida davr oqibati hisoblangan va davlatning tegishli organlari tomonidan tasdiqlansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatga suriladi.

#### **VIII. Yakunlovchi qoidalar**

7.1. Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklda rasmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Mazkur Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismini tashkil etadi.

7.2. Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shakldagi rozilgisiz biror bir uchinchi tomonga berib yuborishi mumkin emas.

7.3. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

#### **IX. Shartnomaning amal qilish muddati**

8.1. Mazkur shartnoma "Buyurtmachi" va "Xizmat ko'rsatuvchi" tomonidan tasdiqlanib, xududiy g'aznachilik bo'linmalarida ruyxatga olingandan so'ng kuchga kiradi va shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil "31" dekabrga kadar amal qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.04.2019 yildagi "Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarori asosida 2-bo'lim v-bandida ko'rsatilganidek "bitimning amal qilish muddati davlat xususiy sherik tomonidan belgilanadi. Bunda u 3 yildan kam bo'lmasligi va 49 yildan oshmasligi kerak"ligi kursatib o'tilgan. Demak bitimning amal qilish muddati smetadagi ajratilgan mablag'lar qanoatlartirgan taqdirda kelgusi yil uchun yangi shartnomalar tuzish orqali yoki qo'shimcha

shartnomalar tuzish orqali amalga oshiriladi. Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 10 yanvardagi 16-sonli qarorining nizomidagi 3 bob 11 bandida korsatilgan tamonlar roziligi bilan shartnoma muddatini uzaytirish korsatilgan.

8.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari xamda kursatilgan muddatlarida bajarilgan va xisob kitob to'lik tugallanganidan so'ng kelgusi yil uchun yoki kelgusi davr uchun shartnoma yangidan tuziladi yoki qo'shimcha shartnoma orqali davom ettiriladi.

8.3. Xizmat ko'rsatuvchi korxonaga tomonidan muassasa oshxonaga binosi xamda ovqat tayyorlash jarayoni uchun ishlatiladigan asosiy vositalar, katta va mayda jixozlar bo'yicha sarflangan mablag'i ya'ni kiritgan investitsiya mablag'i bo'lgan taqdirda xizmat ko'rsatish bo'yicha tuzilgan shartnoma 10 yildan kam bo'lgan muddatda bekor qilinmaydi. Xamda kelgusi davrlar uchun oshxonaga binosini saqlab turish uchun joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshiradi. Jumladan: Muassasa tomonidan kuz qish mavsumi uchun oziq-ovqat zaxirasi jamg'arilmaydi va bu xizmat ko'rsatuvchi tomonidan jamg'ariladi. Ushbu kuz qish mavsumi uchun xizmat ko'rsatuvchi tomonidan jamg'arilgan oziq ovqat zaxirasi xam shartnomani muddatidan oldin bekor qilmaslik uchun asos bo'ladi. Oshxonaga ishchilari ish xaqisi va ularga sarflanadigan boshqa mablag'lar xam jamiyat tomonidan to'lanishini xisobga olib shartnoma muddati ko'shimcha shartnomalar orqali uzaytirilishi mumkin.

#### X. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

Autorsorser	Buyurtmachi
« SHAXZOD ZOVIDOV BIZNES »	PISKENT TTB
Manzil Uzbekiston Tashkentskaya oblast Piskentskiy rayon N. SHomatov 35	Salomatlik I
Tel 949247420	Xr100022860272507073101054001
Faks 949247420	INN 200450740
STIR 307901369	OKONX 91511
Xr20208000905309009001	TEL 5451261
BANK Piskent Mikrokreditbank ATB PISKENT	MFO 00014
MFO 00473	



Autsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha shartnomaga

1-ILOVA

SHARTNOMANING PROGNOZ SUMMASI

T/r	Oylar	Oydagi kunlar soni	O'lchov birligi	Xizmat birligi uchun narx (so'm)	Xizmat birliklari soni	Jami summa QQSsiz (so'm)	QQS %	Jami summa QQS bilan
1	Yanvar	31						
2	Fevral	28/29						
3	Mart	31						
4	April	30						
5	May	31						
6	Iyun	30						
7	Iyul	31						
8	Avgust	31						
9	Sentabr	30	<i>nop.</i>	<i>13 500</i>	<i>11590.</i>	<i>15646500</i>	-	-
10	Oktabr	31						
11	Noyabr	30						
12	Dekabr	31						
	<b>Shartnomaning jami summasi</b>	<b>365/365</b>						

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 148284 на приобретение Услуги по аутсорсингу приготовления еды**

Способ проведения электронный

Дата 15.09.2022

Время рассмотрения 15.09.2022 18:55

Конкурсная комиссия Пискент тумани марказий шифохонаси, (Далее - Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	QODIROVA MUXABBAJT SAYPITO'RAYEVNA	Бош шифокор	Пискент ТТБ
Секретарь комиссии	PO'LATOVA GULBAXOR QO'ZIBOYEVNA	Катта хамшира	Пискент ТТБ
Член комиссии	RAXIMOVA SHAXLO AXMADJONOVNA	Профсоюз	Пискент ТТБ
Член комиссии	MIRQOSIMOVA ASUDA ABDUVALIYEVNA	Пархез хамшира	Пискент ТТБ
Член комиссии	MATQAYUMOV AKROMJON ABDUXAKIMOVICH	Бош шифокор муовини	Пискент ТТБ
Член комиссии	USMONQULOVA SOBIRA ABDURAXIMOVNA	Бош хисобчи	Пискент ТТБ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 15.09.2022 года № лота 148284.

Метод оценки предложений - Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 80

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Подробное описание	Сифатли ва уз вақтида
Количество товара	11 590.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	13 750.00
Стартовая сумма	159 362 500.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Илгари ижтимоий соҳага хизмат курсатганлиги ва ижобий хулосага эга эканлиги тугрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Илгари ижтимоий соҳага хизмат курсатганлиги ва ижобий хулосага эга эканлиги тугрисида маълумотнома

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"SHAHZOD ZOHIDOV BIZNES" MChJ	25	маълумотнома	25	Экспертная		
SARDOR ATLANT SAVDO BIZNES D	25	1	23	Экспертная		

Критерий №2 Ходимлар тугрисида маълумотнома Тип: Текстовое значение Описание:

Ходимлар тугрисида маълумотнома Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"SHAHZOD ZOHIDOV BIZNES" MChJ	25	Ходимлар тугрисида маълумотнома	25	Экспертная		
SARDOR ATLANT SAVDO BIZNES D	25	1	22	Экспертная		

Критерий №3 Банкдан хисоб ракамида хозир вақтда етарли маблаг борлиги Тип:

Текстовое значение

Описание: Банкдан хисоб ракамида хозир вақтда етарли маблаг борлиги

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"SHAHZOD ZOHIDOV BIZNES" MChJ	25	Банкдан хисоб ракамида хозир вақтда етарли маблаг борлиги	25	Экспертная		
SARDOR ATLANT SAVDO BIZNES D	25	1	21	Экспертная		

Критерий №4 Солик туловларидан қарздор эмаслиги тугрисида нуҳсон далолатномаси Тип:

Текстовое значение

Описание: Солик туловларидан қарздор эмаслиги тугрисида нуҳсон далолатномаси

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"SHAHZOD ZOHIDOV BIZNES" MChJ	25	Солик туловларидан қарздор эмаслиги тугрисида нуҳсон далолатномаси	25	Экспертная		
SARDOR ATLANT SAVDO BIZNES D	25	1	22	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
"SHAHZOD ZOHIDOV BIZNES" MChJ	159 362 500.00	156 465 000.00 UZS	156 465 000.00	00.00	156 465 000.00	14.09.2022 15:10:55	20
SARDOR ATLANT SAVDO BIZNES D	159 362 500.00	159 246 600.00 UZS	159 246 600.00	00.00	159 246 600.00	15.09.2022 15:05:23	19.65066

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
"SHAHZOD ZOHIDOV BIZNES" MChJ	80	20	100
SARDOR ATLANT SAVDO BIZNES D	70.4	19.65066	90.05066

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 148284 от 15.09.2022 года на приобретение Услуги по аутсорсингу приготовления еды определила победителем:

"SHAHZOD ZOHIDOV BIZNES" MChJ  
307901369

и резервный исполнитель: SARDOR ATLANT SAVDO BIZNES D (304000606) Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	QODIROVA MUXABBAT SAYPITO'RAYEVNA	Согласен	
Член комиссии	RAXIMOVA SHAXLO AXMADJONOVNA	Согласен	
Член комиссии	MIRQOSIMOVA ASUDA ABDUVALIYEVNA	Согласен	
Член комиссии	MATQAYUMOV AKROMJON ABDUXAKIMOVICH	Согласен	
Член комиссии	USMONQULOVA SOBIRA ABDURAXIMOVNA	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



“ТАСДИКЛАЙМАН”

тумани Марказий шифохона

ишчи комиссия раси

М.Кодирова

2022 йил



Тошкент вилояти Пискент тумани Марказий шифохонада сентябрь ойи овқатланиш хизмати(аутсорсинг) хизмати утказиш буйича

БАЁННОМА №3

Кдтнашди Комиссия раиси  
Котиби  
Комиссия аъзолари

М.Кодирова  
Г.Пулатова  
Ш.Собирова  
А.Миркосимова  
Ш.Рахимова  
А.Маткаюмов

Комиссия раиси М.Кодирова сузга чикиб Узбекистон Республикаси Президентининг 21.04.2021 йилдаги 684-сонли қонунга ,бирлашмада аутсорсинг хизматини танлаш, бах;олаш, танлаб олиш, ҳамда ижросини мониторинг қилиш буйича ишчи комиссиясига энг яхши таклифларни танлаб олишга эълон жойлаштирилган эди. Эълон якуни буйича "SARDOR ATLANT SAVDOBBIZNES D" маъсулияти чекланган жамияти ва "SHANZOD ZOXIDOV BIZNES" mas uliyati cheklangan jamiyatлардан тушган таклифларга асосан " SHANZOD ZOXIDOV BIZNES " маъсулияти чекланган жамияти голиб деб топилганлигини ушбу танлов голиби комиссия аъзолари томонидан хдкконий танланганлиги ва баённома 2 қунлик муҳокамага қуйилганида ҳеч қандай эътирозлар ариқданмаганлигини айтиб утди.Лот №148284 15.09.2022Й

Кенгаш аъзолари ҳам бир овоздан энг яхши таклифларни танлаб олиш йули билан аниқланган SHANZOD ZOXIDOV BIZNES " маъсулияти чекланган жамияти билан шартнома тузишга рози булишди.

Котиби  
Комиссия аъзолари

Г Пулатова  
А Миркосимова  
Ш.Рахимова  
А.Маткаюмов  
С.Усмонкулова

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA  
№-1802**

1. Loyihaning turi: Shartnoma (haq evaziga xizmat ko'rsatish to'g'risida).
2. Loyihaning nomi: "SHAXZOD ZOVIDOV BIZNES" outsorseri tomonidan Piskent tumani Tibbiyot birlashmasi oshxonalarida issiq-ovqat pishirish hamda normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan sanitariya-gigiyena normalari va qoidalariga rioya etgan holda buyurtmalarni bajarish to'g'risidagi shartnoma.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Piskent tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022-yil 16-sentyabr kuni dasturga kiritilgan.
4. Loyihani rasmiylashtirishda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 364, 366, 703-706-moddalari talablariga, O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-son Qonunining 10-moddasi talablariga rioya qilingan, yetkazib beriladigan mahsulot (ko'rsatiladigan xizmat) miqdori, narxi, xisob-kitoblar, tomonlarning javobgarligi, nizolarni hal etish tartiblari qayd etilgan.  
Issiq ovqat pishirish xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan tuman Tibbiyot birlashmasining xarid komissiyasi tomonidan 2022-yil 15-sentyabrda o'tkazilgan lot bo'yicha tuzilgan 148284-sonli bayonnomaga ko'ra o'tkazilgan konkursda "SHAXZOD ZOVIDOV BIZNES" outsorseri tomonidan 100 ball to'plab tuman Tibbiyot birlashmasida issiq ovqat pishirish xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan lot g'olibi etib tan olingan.  
Loyihaga xarid komissiyasining 15.09.2022-yildagi 148284-sonli bayonnomasi ilova qilingan.  
Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



R.Mavlanov